

BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI VA O'QISH DARSLARIDA 5E MODEL ENGAGE (QIZIQTIRISH) BOSQICHINI QO'LLASH

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi

1-kurs magistranti L.B.Irisova

E-mail: lobarislomova05@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarning ona tili va o'qish darslarida Engage bosqichini qo'llashning afzalliklari, yo'llari hamda shu bosqichda amalga oshadigan motivatsiya, diqqat jalb qilish, qiziqish uyg'otish, oldingi bilimlarni faollashtirish haqida so'z brogan. Engage orqali integratsiya qilish jarayoniga na'muna keltirilgan.

Kalit so'zlar: Engage, motivatsiya, diqqat, integratsiya, psixolog, faollashtirish, qiziqish uyg'otmoq, ta'lim tizimi, harakat.

Annotation. This article discusses the advantages and ways to use the Engage stage in native language and reading lessons for elementary school students, as well as the motivation, attention, interest, and activation of previous knowledge realized at this stage. An example of the integration process through Engage is provided.

Keywords: Engage, motivation, attention, integration, psychologist, activation, interest, education system, action.

Анотация. В этой статье речь идет о преимуществах и путях использования этапа Engage на уроках родного языка и чтения в начальных классах, а также о мотивации, привлечении внимания, пробуждении интереса, активизации предыдущих знаний, реализуемых на этом этапе. Приведен пример процесса интеграции через Engage.

Ключевые слова: Engage, мотивация, внимание, интеграция, психолог, активизация, пробуждение интереса, система образования, действие.

Maktab ta'limining dastlabki yillarida qiziqishlar, xususan bilishga bolgan qiziqish, tevarak-atrofdagi olamni bilishga bo'lgan qiziqish ko'proq bilimga bo'lgan tashnalik hamda intellektual qiziquvchanlik juda sezilarli darajada rivojlanadi.

Psixologlarning tadqiqotlariga ko'ra boshlab ayrim faktlarga hamda o'zga narsalardan ajratib olingan yolg'iz hodisalarga nisbatan aqliy va hissiy qiziqishlar bo'ladi. Undan keyin esa sabablarini, qonuniyatlarini, hodisalar o'rtasidagi aloqa bilan o'zaro bog'liqliklarni bilib olish uchun bo'lgan qiziqishlar rivojlana boshlaydi.

1-2 sinf bolalarini "bu nima?" degan savol qiziqтира, bu yoshdan ozroq katta yosh uchun "nima sababdan?", "qanday qilib?" degan savollar o'quvchi ongida tug'ulib qoladi. O'qish malakasining hosil bo'lishi bilan kitob o'qishga, qiziqarli bo'lgan muayyan adabiyotlarni, ertak kitoblarni o'qishga, sarguzasht haqidagi kitoblarni o'qishga qiziqish paydo bo'ladi.

Hozirgi zamon bolalari ayniqsa, raketalariga, texnikaga, oy stansiyalariga, eng so'nggi turdagi avtomobil va samolyotlarga bo'lgan qiziqishlari juda tez yuzaga keladi. Qishloq maktablarining 3-4-sinf o'quvchilari qishloq xo'jaligiga nisbatan sezilarli darajada qiziqishlarini ko'rsata boshlaydilar. Shuning uchun o'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilariga nisbatan munosabatlarida qiziqishlar rivojlanishining qonuniyatlarini nazarda tutishi va qiziqtirish yo'llarini, usullarini qo'llashi zarurdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda samarali bo'lgan 5E modelining Engage (Qiziqtirish) bosqichini qo'llash va uning afzalliklarini ko'rib chiqamiz. Bu bosqichda bolajonlarda yangi mavzu bo'yicha yuqori darajadagi qiziqishni uyg'otish, diqqatini jamlash, mavzu ichiga kirishlarini ta'minlash so'raladi. Bu bosqich oldindan bilimlarni oshkor qilish ham deb ataladi va quyidagilarni talab etadi.

- oldingi bilimlarni faollashtiradi
- diqqatni jalb qilish
- motivatsiya
- qiziqish uyg'otmoq va qo'zg'atmoq

Ushbu bosqichning maqsadi o'quvchilarni darsga qiziqtirish, o'quv jarayoniga jalb qilishdir. Turli xil tadbirlar (ertak, latifa, jumboq, hikoya va h.k) orqali o'qituvchilar o'quvchilarning diqqat e'tiborini hamda qiziqishini jalb qiladilar, sinfda o'quvchilar oldingi bilim yoki tajribalar bilan bog'langan hamda uzviy ketma ketligini his qiladigan muhit yaratadi.

Oldingi bilimlarni faollashtirish bu bosqichda (qiziqtirish) qanday amalga oshirilishini ko'rib chiqamiz. Bu o'qituvchi tomonidan o'ylab topilgan turli xil tadbirlar o'tilgan mavzularga yoki boshqa fanlarga integratsiya qilinigan holda amalga oshiriladi. Integratsiya orqali oldingi bilimlar faollashadi hamda yuksaladi.

Dastlab, diqqat tushunchasiga to'xtalib o'tamiz. Diqqat deb ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir obyektga faol qaratilishini aytamiz. Insonlar faoliyati jarayonida idrok va tasavvur qiladigan har bir voqea va hodisa, har bir narsa, ularning qilgan ishlari, fikrlari, o'ylari diqqatning obyekti hisoblanadi. Aqliy faoliyatning barcha turlarida diqqat ishtirok etadi. O'quvchilarning ish harakatlari ham diqqat bilan sodir bo'ladi. Diqqatga har doim u yoki bu darajadagi faollik hosdir. Bunday faollik o'quvchi ongining bir nuqtaga to'planishining kuchayishi va ma'lum vaqt mobaynida diqqati qaratilgan narsaga ongining faol yo'naltirilishini saqlab turishdan iboratdir.

Demak, o'quvchi diqqati orqali o'z ongiga ta'sir o'tkazishi mumkin. Buning uchun esa o'qituvchi o'quvchi diqqatini boshqarish, ya'ni jalb qilishi zarur. O'quvchilardagi diqqat ulardagi aqliy faoliyatning sifatini ta'minlaydi hamda har qanday jarayonning zaruriy sharti hisoblanadi. O'quvchi biror faoliyatni bajarishi uchun iroda kuchini ishlatsa, bu ixtiyoriy diqqat, agar bolalar irodaviy kuchsiz, maqsadsiz ravishda diqqat paydo qilsa, bu ixtiyorsiz diqqat hisoblanadi. Ta'lim jarayonida darsga o'quvchilarning maqsadli ravishda diqqat qaratishlar, ya'ni dars paytida ixtiyoriy diqqatini turg'unlashtirishlari ta'lim uchun zarurdir. Diqqatni jalb qilish yo'llari juda ko'p. Biz ulardan quyidagilarni keltiramiz;

1. Harakat. Diqqatni tortish uchun harakat kerak. To'g'ri ma'noda sinf xonasi yoki partalar yo'lagi bo'ylab yurish, tana a'zolari (qo'l, oyoq, yuz mimikalari, og'iz) orqali va ko'chma ma'noda bir mavzudan ikkinchi mavzuga o'tish, agar, mavhum narsalar

haqida so'z boradigan aynan bir savol ustida ancha vaqt to'xtalib qolishga to'g'ri kelsa ham, hayotiy misollar orqali nutqni boyitib boorish.

2.Ovoz tempi orqali, ya'ni ovozni bir baland, bir past, bir me'yorda tutish. Misol uchun, mavzu bo'yicha hikoya yoki qiziq bir latifa va h.klarni o'quvchilarga so'zlab berayotganda qo'llash mumkin. Bu jarayon o'quvchilarning diqqatini oshiradi.

3.Savolga tutish. O'quvchilarni jonlantirish hamda ularni sizni tinglashga undashning yana bir sinalgan usuli bu savol berishdir. O'quvchilar diqqati tarala boshlaganini sezsangiz ularga savol bering.

4.Yangiliklar keltiring. Bolalarga o'zlari yashab turgan dunyosidagi yangiliklardan foydalaning. Masalan, robototexnika, avtomobillar, hayvonlar haqida va h.k

Motivatsiya. Psixologlarning ta'rifiga ko'ra, motivatsiya bu o'quvchining o'z faoliyatini aniq maqsadga erishishga yo'naltirishga undaydigan holat. Agar o'quvchilarda biron bir harakat uchun motiv bo'lsa, u o'quvchilarni amalga oshirishlariga undaydi, agarda motivatsiya bo'lmasa, o'quvchilarda harakat yuzaga kelmaydi va o'zlaridan qoniqish his qilmaydilar. O'quvchilarga engage bosqichida qo'llangan tadbir jarayonida yoki so'ngida o'qituvchi tomonidan "sizga ishonaman", "siz qila olasiz" kabi so'zlar yo bo'lmasa, mavzuga oid motivatsion video rolik orqali amalga oshiriladi.

Qiziqish uyg'otmoq va qo'zg'atmoq. O'quvchilarda qiziqish uyg'otish hamda uni qo'zg'atish ikki xil yo'l orqali yuzaga keladi: bola bosh miya ong ostida oldindan bo'lgan qiziqish haqida o'qituvchi nutq irod etishi va o'quvchi bilmagan voqea hodisa yoki jarayon haqida murabbiy qiziq bir video rolik ko'rsatishi, kulgili latifa so'zlashi ularda qiziqish uyg'otadi. Buning oqibatida o'quvchilar tomonidan o'qituvchiga turli savollar yog'dirilishi yuzaga keladi. Agar o'qituvchi bunday jarayonga duch kelsa, ya'ni savollar yomg'iriga, u maqsadiga erishgan bo'ladi. Keling, qiziqish uyg'otish uchun bir tadbirni ko'rib chiqamiz. Buning uchun misol tariqasida 3-sinf ona tili darsligidagi "Gapda kesimning qo'llanilishi" mavzusi bo'yicha engage bosqichini qo'llab ko'ramiz. Bu bosqich uchun biz qiziqarli yumoristik hikoya tuzamiz va u quyidagicha:

Hikoya

Muanna fili bilan ko'chaga sayrga chiqdi. U yo'l cheti bo'ylab yurib ketarkan do'sti Xuannaga ko'zi tushdi. Xuanna chuqur qo'quvda bir narsalarni o'ylab o'tirardi. Muannani ko'rishi bilan o'rnidan turib u bilan salomlashdi va dedi. Do'stim senga bir gap aytmoqchiman, faqat filning quloqlarini bekit, u eshitmasin. Muanna filning quloqlarini bekitdi va so'yla dedi. Shunda u dadsinin yaxshi ko'rgan soatini buzib qo'yganini va dadi kelguncha o'z holiga qaytarishi zarurligini aytdi. Muannadan nima qilsam ekan deya, so'radi. Muanna qanday yo'l tutish mumkin ekan-a?, deb o'ylab turgandi. Shu payt fil tilga kirib, " Xuanna yaxshisi hammasini dadanga aytib qo'ya qol yoki o'zim aytaymi? " dermish.

Bolajonlar, savol. Filning quloqlari bekitilgandi, u qanday qilib bolaning gaplarini eshitdi?

O'quvchilarda turli savollar va javoblar tug'ila boshlaydi. Bu hikoya orqali boshqa fanlar bilan integratsiya qilindi, o'quvchilarning oldingi bilimlarni faollashtirish jarayoni amalga oshirildi, qiziqish uyg'otildi, diqqat jamlash amalga oshirildi, ikkinchi bosqichga (explore) zanjisimon tarzda o'tiladi, ya'ni bu hikoyada ishtirok etgan kesimlar o'qituvchi tomonidan mavzu yoritilayotganda aytib o'tiladi. Bu usul o'quvchilarning yodida kesimning qo'llanilishi yaxshiroq qoladi. Integratsiya qilinganiga sabab, "Hayvonlar qanday eshitadi" mavzusi 3-sinf tabiiy fan darsligida keltirilgan. Unda filning eshitish a'zolari quloqlari, hartumi va tuyuqlarining osti ekanligi aytib o'tilgan. Bu mavzuni eslash orqali javob berish esa oldingi bilimlarni faollashtirishdir. O'quvchilarda savol tug'ilishi hamda javob berishga harakat uyg'onganligi ularda motivatsiya ro'y berganidan dalolatdir.

O'quv jarayonini o'quvchining qiziqishlari ustiga quring. O'qishda bolaning samimiy qiziqishlarini maktabdagi darslar bilan birlashtirishga harakat qilish kerak. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchilar bilan individual ishlashi hamda ota onalarning farzandlariga katta e'tibor qaratishlari talab qilinadi. Masalan, bola kompyuterga qiziqadi, demak mavzuni aynan kompyuterga bog'lab o'tish kerak.

Hamma jarayonning boshlanishi uning qanday tugashini belgilab beradi. Mavzu o'qituvchi hamda o'quvchi o'rtasida qizg'in savol javoblarga, muzokaralarga, muhokamalarga qanchalik boy bo'lsa, natijaga erishish shunchalik buyuk bo'ladi. Dars jarayonida ishtirok etmaydigan bolalar bo'ladi. Engage(qiziqtirish) aynan mana shunday o'quvchilar uchun juda qo'l keladi. Bu bosqich ularni o'ylashga, fikr yuritishga hamda o'quvchilar bilan muloqot qilishga undaydi, o'ziga bo'lgan ishonchini uyg'otishga yordam beradi. Faqatgina, bu ko'rinishdagi o'quvchilarning fikr mulohazalari, ustoziga bergan javoblari o'qituvchi tomonidan qo'llab quvvatlanishi talab etiladi. Murabbiyning qo'llab quvatlashi ular uchun kuchli motivatsiya hisoblanib, ularni harakatga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsiyon texnologiyalar (ta'lim muassasalari o'qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste'dod, 2010. -140 b.
2. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat. T.: 2006
3. Badalova Maqsuda Umarovna. Ta'limda 5E modeli.
4. 3-sinf Ona tili darsligi, 2024.
5. 3-sinf Tabiiy fan darsligi, 2024.